

# O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 6 martdagi "Avtomobil" transportini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3589-sonli qarori haqida

Avtomobil transportini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish, avtomobil transportida tashishlar xavfsizligini ta'minlash hamda avtotransport xizmatlari bozorini shakllantirish va rivojlantirish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 6 martdagi "Avtomobil" transportini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3589-sonli qarori ijro uchun rahbarlikka olinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yuqorida ko'rsatilgan qarori bilan:

a) O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligining daryo transporti sohasidagi davlat boshqaruvi bo'yicha vakolati O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligiga o'tkazilganligi;

b) O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi, O'zbekiston avtomobil transporti agentligi (keyingi o'rinlarda "O'zavtotrans" agentligi deb ataladi) etib qayta nomlanganligi;

v) quyidagilar:

avtomobil transporti ob'ektlari va yo'lovchilar xavfsizligini ta'minlovchi istiqbolli axborot-kommunikatsion texnologiyalarini va innovatsion yondashuvlarni keng qo'llagan holda yangi boshqaruv tizimlarini joriy etib, avtomobil transporti sohasida yagona texnika siyosatini yuritish;

avtomobil tashuvlarida normativ-xuquqiy va metodik bazani takomillashtirish, avtomobil transporti tashishlar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha muammolar yuzasidan xalqaro normalar, ilmiy-tekshiruv, loyiha-konstruktorlik, texnologik ishlarni inobatga olgan holda texnik tartibga solish sohasida normativ xujjatlarning yagona ma'lumotlar bazasini ishlab chiqish va shakllantirish;

iqtisodiyot tarmoqlari va aholining tashishlarga bo'lgan ehtiyojlarini hamda avtomobil transporti xavfsizligini ta'minlash choralarini inobatga olgan holda, qishloq aholi punktlarini, shaharlar, viloyat va tuman markazlarini bog'lovchi yangi yo'nalishlarni ochish, avtomobil transportini rivojlantirish bo'yicha kompleks dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

yo'lovchilarga keng ko'lamli xizmatlar ko'rsatish uchun sharoit yaratish, shu jumladan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo'llab, avtovokzallar va avtostantsiyalar faoliyatini markazlashgan holda boshqarish va muvofiqlashtirish tizimini joriy etish;

avtovokzallar va avtostantsiyalar hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari qaramog'ida bo'lgan umumiy foydalanishdagi yo'lovchi tashish yo'nalishlaridagi to'xtash bekatlarini loyihalash, qurish, rekonstruktsiya qilish va ta'mirlashni tashkil etish;

tashish jarayonlari, qatnov jadvallariga rioya etilishi, yo'llarda harakatlanish tezligi monitoringi, harakat yo'nalishi sxemasiga rioya etilishi hamda aholiga real vaqt tarzidagi ma'lumotlar xizmatining keng ko'lamli ro'yxati taqdim etilishi yuzasidan markazlashgan dispetcherlik boshqaruvi va nazorati tizimini joriy etish;

tashuv yo'nalishlarini tender asosida joylashtirish, yo'lovchi tashishlari sifati va xavfsizligini oshirish, tenderlar tashkilotchilari ishini muvofiqlashtirish mexanizmlarini joriy etish yo'li bilan avtomobil transporti xizmatlari bozorida bozor munosabatlari va raqobat muhitini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan faol muloqot qilish orqali avtomobil transporti sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, xorijiy davlatlarning vakolatli organlari bilan kelishgan holda, yangi muntazam xalqaro avtobus yo'nalishlarini ochish hamda xalqaro avtomobil tashuvlari sohasidagi xalqaro shartnomalar bo'yicha majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash, bu sohadagi amaldagi shartnomalarni qayta ko'rib chiqish va yangilarini tuzish, xalqaro yuk tashuvlarini amalga oshirish uchun ruxsatnomalar blankalarini o'zaro ayirboshlash;

avtomobil transportida yo'lovchi va yuklarni tashish faoliyatini litsenziyalash, avtomobil transportida yo'lovchi va yuklarni tashish qoidalariga amal qilish, avtomobil tashuvlar xavfsizligini ta'minlash talablariga, og'irlik va gabarit ko'rsatkichlariga hamda haydovchilarning mehnat va dam olish rejimlariga rioya etilishini nazorat qilish;

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan O'zbekiston Respublikasi hududida avtomobil tashuvlarni amalga oshirish shartlariga rioya etilishini nazorat qilish (O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi orqali o'tkazish punktlari bundan mustasno);

avtomobil transportida, eng avvalo, transport xavfsizligini ta'minlash masalalari bo'yicha kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlashni tizimli tashkil etish "O'zavtotrans" agentligining asosiy vazifalari va faoliyatining yo'nalishlari etib belgilanganligi;

"O'zavtotrans" agentligiga yuklangan vazifalar va faoliyat yo'nalishlarining sifatli hamda to'laqonli bajarilishi uchun shaxsiy javobgarlik "O'zavtotrans" agentligi boshlig'i zimmasiga yuklanganligi;

g) Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi shahar yo'lovchi transportini boshqarish bo'yicha maxsus vakolatli organlar "O'zavtotrans" agentligining tegishli hududiy boshqarmalariga birlashtirish va ularga maxsus vakolatli organlar va departamentlarning huquqlari, majburiyatlari, shtat birliklari va mol-mulkulari 1-ilovaga muvofiq ro'yxat bo'yicha berish topshirilganligi;

Shahar yo'lovchi transportini boshqarish bo'yicha maxsus vakolatli organlar va departamentlarni "O'zavtotrans" agentligining tegishli hududiy boshqarmalariga birlashtirish bo'yicha komissiya tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

d) Avtomobil va daryo transportini rivojlantirishni normativ-texnik ta'minlash Respublika markazi "O'zavtotranstexnika" ilmiy-ishlab chiqarish markazi" DK;

"Avtodaryotrans-ilm" kasb malakasini oshirish davlat ilmiy-metodik markazi "Avtomobil" transporti kadrlari malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash instituti" DK deb qayta nomlanganligi;

e) O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining Nukus avtomobil yo'l-xo'jaligi va xizmat ko'rsatish kasb-hunar kollejini, Andijon transport va xizmatlar ko'rsatish kasb-hunar kollejini hamda Samarqand avtomobil va yo'llar kasb-hunar kollejini, ularning ta'minotini O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirish tartibini saqlab qolgan holda, "O'zavtotrans" agentligi tarkibiga o'tkazish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilganligi;

j) quyidagilar:

O'zbekiston avtomobil transporti agentligining tashkiliy tuzilmasi 3-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston avtomobil transporti agentligi markaziy apparati tuzilmasi uning xodimlari cheklangan umumiy sonini 80 kishi, shu jumladan, boshqaruv xodimlarini 62 kishi etib, 4-ilovaga muvofiq amalga oshirish belgilanganligi;

O'zbekiston avtomobil transporti agentligi hududiy boshqarmalarining namunaviy tuzilmasi va cheklangan xodimlari soni 5 va 5 "a"-ilovalarga muvofiq;

Avtomobil transportini boshqarish tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish dasturi 6-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga avtomobil transportini boshqarish tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish dasturini amalga oshirish natijalarini har tomonlama tahlil qilish asosida dastur parametrlariga o'zgartirishlar kiritish huquqi berilganligi;

z) Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar hokimliklariga "O'zavtotrans" agentligi bilan birgalikda shahar va tumanlarda yangi tashkil etilayotgan avtomobil tashuvlarini muvofiqlashtirish shu balarining shahar va tumanlarda joylashtirilishini ta'minlash topshirilganligi;

i) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 10 yanvardagi PQ-2724-son qarori bilan tasdiqlangan 2017-2021 yillarda shaharlar va qishloqlarda avtotransport xizmatlarini yanada rivojlantirish dasturiga quyidagilarni nazarda tutuvchi o'zgartirishlar kiritish, jumladan:

yangi avtobus yo'nalishlarini tashkil etish hamda avtovokzallar va avtostantsiyalar qurilishi va rekonstruksiya qilinishining 2018-2021 yillarda respublika iqtisodiyoti va chekka mintaqalar aholisining tashishlarga bo'lgan ehtiyojlarini hisobga olgan holda yangilangan maqsadli ko'rsatkichlari 7-8-ilovalarga muvofiq;

2018-2021 yillarda avtomobilda xalqaro tashishlarni amalga oshirayotgan milliy tashuvchilarning katta hajmli yuk avtotransport vositalari parkini yangilashning prognoz ko'rsatkichlari 9-ilovaga muvofiq belgilanganligi;

2017-2021 yillarda shaharlar va qishloqlarda avtotransport xizmatlarini yanada rivojlantirish dasturida nazarda tutilgan tadbirlarning o'z vaqtida va to'liq amalga oshirilishi yuzasidan mas'uliyat Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari hamda "O'zavtotrans" agentligi boshlig'i zimmasiga yuklatilganligi;

k) Ilmiy-tadqiqot ishlari, yo'lovchi avtovokzallari va avtostantsiyalari, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlariga qarashli bo'lgan umumiy foydalanishdagi yo'lovchi yo'nalishlari oraliq bekatlarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash bo'yicha dasturlar, avtotransport vositalarini xarid qilish va avtomobil transportini boshqarish tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, "O'zavtotrans" agentligini saqlashni moliyalashtirish maqsadlari uchun yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan O'zbekiston avtomobil transporti agentligining Avtomobil transportini rivojlantirish jamg'armasi (keyingi o'rinlarda Jamg'arma deb ataladi) tashkil etilganligi;

Jamg'armani moliyalashtirish manbalari etib quyidagilar belgilanganligi:

shahar, shahar atrofi, shaharlararo va xalqaro avtomobilda yo'lovchilar va yuk tashishlarni amalga oshirishga litsenziyalar berish va ularning amal qilish muddatini uzaytirish uchun to'lanadigan davlat boji mablag'larining 100 foizi;

"O'zavtotrans" agentligining hududiy boshqarmalari inspektorlari tomonidan avtomobil tashuvlari sohasida tuzilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi bayonnomalar bo'yicha undiriladigan jarimalar summasining 84 foizi;

Jamg'armaga yuklangan vazifalarni amalga oshirish uchun jalb etiladigan xalqaro moliya institutlari, xorijiy hukumat tashkilotlari va boshqa donorlar kreditlari (zayomlari) va grantlari;

davlat va xususiy hamkorlik doirasidagi xususiy investitsiyalar hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar;

"O'zavtotrans" agentligiga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda ikki oy muddatda Jamg'arma to'g'risidagi Nizomni ishlab chiqish va tasdiqlash topshirilganligi;

l) 2022 yilning 1 yanvarigacha bo'lgan muddatga:

lizing kompaniyalari va xalqaro tashuvlarni amalga oshiruvchi milliy tashuvchilar O'zbekiston Respublikasiga olib kirilayotgan va mamlakatda ishlab chiqarilib xarid qilinayotgan yuk avtotransporti vositalarini O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi organlarida ro'yxatdan o'tkazishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasiga undiriladigan yig'imlar to'lovidan;

asosiy faoliyati avtobuslarda yo'lovchi tashishni amalga oshirish bo'lgan umumiy foydalanishdagi shahar yo'lovchi transporti tashkilotlari er solig'i to'lovlaridan ozod etilganligi;

m) "O'zavtotrans" agentligi boshlig'iga:

avtobuslarda yo'lovchi tashish (shu jumladan, xalqaro) xizmatini ko'rsatuvchi, yuklarni avtomobilda tashishlar hamda transport-logistika faoliyatini amalga oshiruvchi, to'xtash bekatlarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va boshqa avtomobil transporti sohasida faoliyat yurituvchi unitar korxonalar shaklidagi mustaqil maxsus korxonalarni tashkil etish topshirilganligi;

"O'zavtotrans" agentligi tuzilmasidagi unitar korxonalarni birlashtirish va tugatish huquqi berilganligi;

n) "O'zavtotrans" agentligiga va uning tomonidan tashkil etiladigan maxsus korxonalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Hududlarni kompleks rivojlantirish va kommunal soha, ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, transport, kapital qurilish va qurilish industriyasi masalalari kompleks rahbari bilan kelishgan holda, tender savdolari o'tkazmasdan, eng maqbul takliflarni tanlab olish yo'li bilan avtobuslar va mikroavtobuslar faoliyatini masofadan onlayn tarzida kuzatish hamda yo'lovchilar transportida yo'l haqini naqd pulsiz to'lash tizimini joriy etish uchun mo'ljallangan avtotransport vositalari, dasturiy mahsulotlar, uskunalar, mexanizmlar, materiallar, butlovchi anjomlarni ishlab chiqaruvchi zavodlar (etkazib beruvchilar) yoki ularning rasmiy dilerlari (distrib'yutorlari) bilan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzishga ruxsat etilganligi;

o) "O'zavtotrans" agentligi va uning tomonidan tashkil etiladigan yangi maxsus korxonalar asoslash ehtiyoji mavjud bo'lganda texnik-iqtisodiy asoslash asosida 2023 yilning 1 yanvarigacha bo'lgan muddatga:

barcha turdagi soliqlardan va maqsadli davlat jamg'armalariga o'tkaziladigan majburiy to'lovlardan ozod qilinishi, bunda bo'shagan mablag'lar yangidan tashkil etiladigan maxsus tashkilotlarning moddiy- texnika bazasini mustahkamlash uchun maqsadli ishlatilishi;

O'zbekiston Respublikasiga belgilangan tartibda tasdiqlangan ro'yxatlar bo'yicha olib kiriladigan transport vositalari, butlovchi anjomlar va ehtiyot qismlar, uskunalar, asboblari va priborlar, mashinalar va mexanizmlar, kompyuter va diagnostika texnikasi uchun bojxona to'lovlardan ozod etilishi belgilab qo'yilganligi (bojxonada rasmiylashtiruvlar uchun yig'imlar bundan mustasno);

"O'zavtotrans" agentligi va uning tomonidan tashkil etilayotgan yangi maxsus tashkilotlar o'rtasida, shuningdek, tashkilotlarning o'zlariga o'rtasida qaytarmaslik sharti bilan topshirilayotgan va qabul qilinayotgan mol-mulk yuridik shaxslarning qo'shimcha qiymat va daromad solig'i bo'yicha soliqqa tortish ob'ekti hisoblanmasligi belgilab qo'yilganligi;

p) "O'zavtotrans" agentligi xodimlari xizmat vazifalarini bajarishda idoraviy formal kiyim-bosh kiyishi belgilanganligi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, idoralari va tashkilotlarining formal kiyim-boshlarini ishlab chiqish, standartlash, tasdiqlash va tayyorlash mexanizmini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2800-son qaroriga 1-ilovadagi "Idoraviy formal kiyim-bosh" bobiga quyidagi mazmundagi 6-band qo'shilsin:

"6. O'zbekiston avtomobil transporti agentligi";

r) O'zbekiston Respublikasi Xususiyashtirilgan korxonalar ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasiga Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda ikki oy muddatda "O'zavtotrans" agentligi va uning tomonidan tashkil etiladigan yangi mustaqil tashkilotlarga davlat tasarrufidagi avtovokzallar, avtostantsiyalar, binolar va ishlab chiqarish maydonlarini berish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish topshirilganligi;

s) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga O'zbekiston Respublikasida avtomobil transportini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risidagi hukumat qarorini ikki hafta muddatda qabul qilish topshirilganligi;

t) "O'zavtotrans" agentligiga, O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga hamda boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonun hujjatlariga mazkur qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish topshirilganligi;

u) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 10 yanvardagi "Aholiga transport xizmati ko'rsatish hamda shaharlar va qishloqlarda avtobuslarda yo'lovchilar tashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2724-son qarorining 1 va 4-ilovalari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosari S.I.Nagmetov, Nukus shahar hokimligi va "O'zavtotrans" agentligi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi va mutasaddi vazirlik va idoralar bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yuqorida ko'rsatilgan qarori bilan 1-ilovaga muvofiq tasdiqlangan "O'zavtotrans" agentligining tegishli hududiy boshqarmalariga birlashtirilayotgan shahar yo'lovchi transportini boshqarish bo'yicha maxsus vakolatli organlar ro'yxati" doirasida Nukus shahar hokimligi huzuridagi "Nukus transporti" davlat korxonasini belgilangan tartibda "O'zavtotrans" agentligi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasiga birlashtirish va unga maxsus vakolatli organlarning huquqlari, majburiyatlari, shtat birliklari va mol-mulkklarini berish ishlarini ta'minlasin.

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosarlari (Nagmetov, Jumanov) Nukus shahar hokimligi, O'rta maxsus ta'lim boshqarmasi va mutasaddi vazirlik va idoralar bilan birgalikda Nukus avtomobil yo'l-xo'jaligi va xizmat ko'rsatish kasb-hunar kollejini, uning ta'minotini O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirish tartibini saqlab qolgan holda, "O'zavtotrans" agentligi tarkibiga o'tkazish bo'yicha tegishli hujjatlarini tayyorlasinlar va o'rnatilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda "O'zavtotrans" agentligiga taqdim etsinlar.

5. "O'zavtotrans" agentligi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yuqorida ko'rsatilgan qarori bilan:

5a-ilovaga muvofiq tasdiqlangan O'zbekiston avtomobil transporti agentligi hududiy boshqarmalarining namunaviy tuzilmasi va cheklangan xodimlari soniga muvofiq boshqarmaning tuzilmasini tasdiqlash va faoliyatini tashkillashtirish;

6-ilovaga muvofiq tasdiqlangan "Avtomobil transportini boshqarish tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish dasturi" doirasida belgilangan tadbirlarning bajarilishini ta'minlash;

tumanlar va Nukus shahri hokimliklari bilan birgalikda shahar va tumanlarda yangi tashkil etilayotgan avtomobil tashuvlarini muvofiqlashtirish shu balarning shahar va tumanlarda joylashtirilishini ta'minlash topshirilsin.

6. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2017 yil 14 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil yanvardagi "Aholiga transport xizmati ko'rsatish hamda shaharlar va qishloqlarda avtobuslarda yo'lovchilar tashish tizimini yanada

takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi PQ-2724-son qarori haqida”gi 13-sonli qarori bilan ijro uchun qabul qilingan “2017-2021 yillarda shaharlar va qishloqlarda avtotransport xizmatlarini yanada rivojlantirish dasturiga quyidagilarni nazarda tutuvchi o`zgartirishlar kiritilsin:

yangi avtobus yo`nalishlarini tashkil etish hamda avtovokzallar va avtostantsiyalar qurilishi va rekonstruksiya qilinishining 2018-2021 yillarda respublika iqtisodiyoti va chekka mintaqalar aholisining tashishlarga bo`lgan ehtiyojlarini hisobga olgan holda yangilangan maqsadli ko`rsatkichlari 7-8-ilovalarga muvofiq;

2018-2021 yillarda avtomobilda xalqaro tashishlarni amalga oshirayotgan milliy tashuvchilarning katta hajmli yuk avtotransport vositalari parkini yangilashning prognoz ko`rsatkichlari 9-ilovaga muvofiq bajarilsin.

2017-2021 yillarda shaharlar va qishloqlarda avtotransport xizmatlarini yanada rivojlantirish dasturida nazarda tutilgan tadbirlarning o`z vaqtida va to`liq amalga oshirilishi yuzasidan mas`uliyat Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari hamda “O`zavtotrans” agentligi boshlig`i zimmasiga yuklansin.

7. Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2017 yil 14 yanvardagi “O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 10 yanvardagi “Aholiga transport xizmati ko`rsatish hamda shaharlar va qishloqlarda avtobuslarda yo`lovchilar tashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi PQ-2724-son qarori haqida”gi 13-sonli qarori bilan ma`lumot uchun qabul qilingan 1 va 4-ilovalari o`z kuchini yo`qotgan deb hisoblansin.

8. Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o`rinbosari S.I.Nagmetov, “O`zavtotrans” agentligi Qoraqalpog`iston Respublikasi boshqarmasi, tumanlar va Nukus shahri hokimliklari bilan birgalikda avtobuslarda yo`lovchi tashish (shu jumladan, xalqaro) xizmatini ko`rsatuvchi, yuklarni avtomobilda tashishlar hamda transport-logistika faoliyatini amalga oshiruvchi, to`xtash bekatlarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta`mirlash va boshqa avtomobil` transporti sohasida faoliyat yurituvchi unitar korxonalar shaklidagi mustaqil maxsus korxonalarini tashkil etish bo`yicha asoslangan takliflarni “O`zavtotrans” agentligiga kiritilsinlar.

9. Tumanlar va Nukus shahar hokimliklari, vazirlik va idoralar o`zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni ushbu qarorga muvofiqlashtirsinlar.

10. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o`rinbosari S.I.Nagmetov va “O`zavtotrans” agentligi Qoraqalpog`iston Respublikasi boshqarmasi boshlig`i A.K.Berdiev zimmasiga yuklansin.

Qoraqalpog`iston Respublikasi  
Vazirlar Kengashining Raisi

Q.Sariev

*Ko`rib chiqildi:*

- 
- 
- 

[Vazirlar Kengashi](#) [Statistik va tahliliy ma'lumotlar](#)  
[Vazirliklar va idoralar](#) [Shahar va tuman hokimliklari](#)  
[Hujjatlar](#) [Respublika mehmonlariga](#) [Elektron hukumat](#) [Interaktiv davlat xizmatlar](#)